

FARG'ONA VILOYATIDA MINTAQAVIY TURIZM SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI TAHLILI

Azizova Sug'diyona Baxtiyor qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti

ORCID: 0009-0004-6622-5752

sugdiyonabaxtiyarovna23@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21943480>

Annotatsiya. Mazkur tezisda Farg'ona viloyatining mintaqaviy turizm salohiyati, uning tabiiy, tarixiy-madaniy va hunarmandchilik resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari hamda turizm rivojlanishini cheklayotgan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2023-2025-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar, turistik xizmatlar, joylashtirish vositalari va investitsiyalar dinamikasi ko'rib chiqilgan. Tahlil natijalari viloyatda turizm xizmatlari va investitsion faollikning o'sish tendensiyasi mavjudligini, biroq infratuzilma, malakali kadrlar, marketing va brending, raqamlashtirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridagi muammolar salohiyatdan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilayotganini ko'rsatadi. Shu asosda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, hududiy turistik brendni kuchaytirish, raqamli marketing va smart turizm vositalarini kengaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida asoslanadi.

Kalit so'zlar. Farg'ona viloyati, mintaqaviy turizm, turizm salohiyati, turizm infratuzilmasi, turistik brending, raqamli marketing, smart turizm, turistik xizmatlar, investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik.

АНАЛИЗ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Азизова Сугдиёна Бахтиёр кизи

Магистрант Международной академии исламоведения Узбекистана

ORCID: 0009-0004-6622-5752

sugdiyonabaxtiyarovna23@gmail.com

Аннотация. В тезисной работе анализируются туристический потенциал Ферганской области, возможности эффективного использования её природных, историко-культурных и ремесленных ресурсов, а также основные проблемы, сдерживающие развитие регионального туризма. Рассмотрена динамика социально-экономических показателей, объёма туристически значимых услуг, средств размещения и инвестиций за 2023-2025 годы. Результаты анализа показывают положительную динамику развития сферы услуг и инвестиционной активности, однако недостаточное развитие инфраструктуры, дефицит квалифицированных кадров, слабые маркетинг и брендинг, недостаточный уровень цифровизации и несовершенство механизмов государственно-частного партнёрства ограничивают полное использование туристического потенциала региона. В связи с этим обоснованы приоритетные направления модернизации туристической инфраструктуры, усиления регионального туристического бренда, расширения цифрового маркетинга и инструментов smart tourism, повышения кадрового потенциала и совершенствования взаимодействия государственного и частного секторов.

Ключевые слова. Ферганская область, региональный туризм, туристический потенциал, туристическая инфраструктура, туристический брендинг, цифровой

маркетинг, smart tourism, туристические услуги, инвестиции, государственно-частное партнёрство.

ANALYSIS OF OPPORTUNITIES FOR THE EFFECTIVE UTILIZATION OF REGIONAL TOURISM POTENTIAL IN THE FERGANA REGION

Azizova Sugdiyona Baxtiyor qizi

Master's student of the International Islamic Academy of Uzbekistan

ORCID: 0009-0004-6622-5752

sugdiyona baxtiyarovna23@gmail.com

Annotation. This thesis analyzes the tourism potential of the Fergana Region, the opportunities for the effective utilization of its natural, historical-cultural and handicraft resources, and the main constraints affecting regional tourism development. The study examines the dynamics of socio-economic indicators, tourism-related services, accommodation facilities and investment during 2023-2025. The findings demonstrate a positive trend in the development of services and investment activity; however, insufficient infrastructure, a shortage of qualified personnel, weak marketing and branding, limited digitalization, and imperfect public-private partnership mechanisms hinder the full realization of the region's tourism potential. Accordingly, the study identifies modernization of tourism infrastructure, strengthening the regional tourism brand, expanding digital marketing and smart tourism tools, improving human resource capacity, and enhancing public-private cooperation as priority directions.

Key words. Fergana region, regional tourism, tourism potential, tourism infrastructure, tourism branding, digital marketing, smart tourism, tourism services, investment, public-private partnership.

Kirish.

Hozirgi sharoitda turizm hududlarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi, yangi ish o'rinlari yaratishga, xizmatlar sektorini kengaytirishga va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mintaqaviy turizmni rivojlantirishda hududlarning tabiiy, tarixiy-madaniy, rekreatsion va hunarmandchilik salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Farg'ona viloyati mazkur jihatdan katta imkoniyatlarga ega bo'lib, uning hududida tarixiy-madaniy meros obyektlari, hunarmandchilik markazlari, tabiiy va rekreatsion resurslar hamda gastronomik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Xususan, Rishton kulolchilik maktabi, Marg'ilonning ipakchilik va atlas-adras an'analari, Qo'qon shahrining tarixiy-madaniy merosi, shuningdek, viloyatning tog'li va rekreatsion hududlari turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mavjud salohiyatning o'zi turizmning yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlamaydi. Turistik resurslardan samarali foydalanish uchun zamonaviy infratuzilma, sifatli servis, malakali kadrlar, faol marketing, hududiy brending, raqamli texnologiyalar va samarali boshqaruv mexanizmlarining uyg'unligi talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, Farg'ona viloyatida turizm sohasining amaldagi holatini statistik ko'rsatkichlar asosida baholash, mavjud muammolarni aniqlash va turizm salohiyatidan

samarali foydalanish imkoniyatlarini asoslash mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Asosiy qism.

Farg'ona viloyatining turizm salohiyatini baholashda hudud iqtisodiyotining umumiy rivojlanish ko'rsatkichlari bilan bir qatorda turizm va unga yondosh xizmatlar sohasidagi o'zgarishlarni ham tahlil qilish muhimdir.

1-jadval

2023-2025-yillarda Farg'ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi¹

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			2025-yil 2023-yilga nisbatan o'sish sur'ati % da
		2023	2024	2025	
1	YaHM (mlrd so'm)	81 573,3	93 605,7	111 305,3	36%
2	Aholi soni (ming kishi)	3 976,3	4 061,5	4 144,7	4%
3	Xizmatlar umumiy hajmi (mlrd so'm)	45 227,8	56 780,7	71 765,9	59%
4	Yashash va ovqatlanish xizmatlari (mlrd so'm)	5 034,3	10 264,6	10 870,8	116%
5	Joylashtirish vositalari soni (ta)	49	280	-	-
6	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (mlrd so'm)	19955,0	21542,7	32466,8	63%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2023–2025-yillarda Farg'ona viloyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarida ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Xususan, yalpi hududiy mahsulot hajmi 2023-yildagi 81 573,3 mlrd so'mdan 2024-yilda 93 605,7 mlrd so'mga, 2025-yilda esa 111 305,3 mlrd so'mga yetgan. Natijada 2025-yilda YaHM hajmi 2023-yilga nisbatan 36 foizga oshgan.

Turizm salohiyatini baholash nuqtayi nazaridan xizmatlar sohasidagi o'zgarishlar alohida ahamiyatga ega. Xizmatlar umumiy hajmi 2023-yildagi 45 227,8 mlrd so'mdan 2024-yilda 56 780,7 mlrd so'mga yetib, 25,5 foizga oshgan. Bu hudud iqtisodiyotida xizmatlar sektorining ulushi va ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmining 2023-yildagi 5 034,3 mlrd so'mdan 2024-yilda 10 264,6 mlrd so'mga yetgani, ya'ni ikki baravardan ortiq o'sgani turizm infratuzilmasi va unga yondosh xizmatlar rivojlanishining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 10 870,8 mlrd so'mni tashkil etgan.


Joylashtirish vositalari sonining 2023-yildagi 49 tadan 2024-yilda 280 taga yetishi ham hududning turistlarni qabul qilish imkoniyatlari kengayayotganidan dalolat beradi. Mazkur ko'rsatkich 5,7 baravarga oshgan.

¹ <https://farstat.uz/uz/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

Investitsion faollik ham turizm salohiyatini rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar 2023-yildagi 19 955,0 mlrd so'mdan 2024-yilda 21 542,7 mlrd so'mga, 2025-yilda esa 32 466,8 mlrd so'mga yetgan. Bu 2023-yilga nisbatan 63 foizlik o'sishni anglatadi.

Mazkur ko'rsatkichlar Farg'ona viloyatida turizm va xizmatlar sektorini rivojlantirish uchun iqtisodiy baza shakllanayotganini ko'rsatadi. Biroq iqtisodiy o'sishning o'zi turizm salohiyatidan samarali foydalanish uchun yetarli emas. Mavjud infratuzilma, kadrlar va marketing muammolarini hal etish zarur.

Farg'ona viloyatida turizmning amaliy rivojlanish darajasini baholashda turistik firma va tashkilotlar faoliyati, ularga xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni hamda sotilgan sayyohlik yo'llanmalari dinamikasi muhim ko'rsatkich hisoblanadi.



1-rasm. 2022-2024-yillarda Farg'ona viloyatida turistik firma va tashkilotlar faoliyatining ko'rsatkichlari dinamikasi²

Rasm ma'lumotlari Farg'ona viloyatida turistik tashkilotlar faoliyati va turistik xizmatlarga bo'lgan talabning o'sib borayotganini ko'rsatadi. 2024-yilda viloyatda 19 ta turistik firma va tashkilot faoliyat yuritgan bo'lib, ular tomonidan 11,9 ming kishiga xizmat ko'rsatilgan va jami 12 mingta sayyohlik yo'llanmasi sotilgan.

2023-yilga nisbatan asosiy ko'rsatkichlarda sezilarli o'sish kuzatilgan. Jumladan, turistik firma va tashkilotlar soni 4 taga yoki 27 foizga, ular tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni 6,6 ming kishiga yoki 123,9 foizga, sotilgan sayyohlik yo'llanmalari soni esa 3,8 ming taga yoki 1,4 baravarga oshgan.

Mazkur dinamika viloyatda turizm xizmatlariga talab ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq turistlar oqimining o'sishi turizm infratuzilmasi va xizmatlar sifatining mutanosib ravishda rivojlanishini talab qiladi. Aks holda, mavjud talabning yuqori darajada qondirilmasligi hududning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi <https://farstat.uz/uz/>

Farg'ona viloyatining turizm salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish mavjud muammolarni aniqlashni ham talab qiladi.

Birinchi navbatda, turizm infratuzilmasining ayrim yo'nalishlarda yetarli darajada rivojlanmaganligi³ muhim muammo hisoblanadi. Xususan, transport va yo'l sifati, tog'li hududlarga kirish imkoniyati, sanitariya-gigiyena infratuzilmasi va zamonaviy servis obyektlarining yetishmasligi turistlar uchun qulaylik darajasini pasaytiradi.⁴

Marketing va reklama faoliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligini ham asosiy muammolardan biri sifatida ko'rsatish mumkin. Viloyatning turistik resurslari mavjud bo'lishiga qaramay, ularni yagona hududiy brend asosida ichki va xalqaro turizm bozorlarida faol targ'ib qilish mexanizmlari yetarlicha shakllanmagan. Raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va zamonaviy kontent vositalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish zarur.

Navbatdagi e'tiborga molik muammolardan biri bu malakali kadrlar yetishmovchiligi. Turizm sohasida gidlar, menejerlar, marketing mutaxassislari va mehmonxona servisi xodimlarining yetarli emasligi xizmatlar sifatining xalqaro talablar darajasida shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda.

To'rtinchi muammo - davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining yetarlicha takomillashmaganligi. Turizm loyihalariga xususiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion kafolatlar, risklarni boshqarish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini oshirish talab etiladi.

So'nggi muammo esa raqamlashtirish darajasining yetarli emasligi. Elektron boshqaruv, raqamli servislari, onlayn marketing platformalari va boshqa zamonaviy texnologiyalarning keng joriy etilmaganligi Farg'ona viloyatining turistik mahsulotlarini ichki va xalqaro bozorlarda samarali targ'ib qilish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Shuningdek, hududiy turizm siyosatini amalga oshirishda kompleks yondashuvning yetarli emasligi ham mavjud salohiyatdan foydalanish samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biridir. Davlat va xususiy sektor hamkorligining sustligi, institutsional mexanizmlarning takomillashmaganligi va innovatsion yondashuvlarning yetarlicha keng joriy etilmaganligi natijasida turizmning iqtisodiy o'sish, bandlik va investitsion jozibadorlikni oshirishdagi imkoniyatlari to'liq namoyon bo'lmayapti.

Yuqoridagi tahlillar asosida Farg'ona viloyatida turizm salohiyatidan samarali foydalanish uchun quyidagi yo'nalishlarni ustuvor deb hisoblash mumkin:

Turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish. Transport va yo'l infratuzilmasini yaxshilash, tog'li va rekreatsion hududlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, sanitariya-gigiyena obyektlari hamda zamonaviy servis infratuzilmasini rivojlantirish zarur.

Hududiy turistik brendni shakllantirish. Farg'ona viloyatining tarixiy-madaniy merosi, hunarmandchiligi, gastronomiyasi, tabiiy va rekreatsion resurslarini yagona hududiy turistik brend ostida birlashtirish maqsadga muvofiq.

³ Farg'ona viloyati Turizm departamenti. Turizm infratuzilmasi bo'yicha hisobot. 2026-yil 9-avgust ko'rilgan, manzil: <https://en.ferganatourism.uz/>

⁴ Astanakulov, Komil & Ahmedov, Alim & Kovalev, Dmitriy & Mamasaliev, Mukaddas. (2025). An integrated approach to sustainable tourism development in the mountain regions of Uzbekistan. Sustainable Development of Mountain Territories. 17. 414-426. 10.21177/1998-4502-2025-17-1-414-426.

Raqamli marketingni kuchaytirish. Turistik obyektlarni ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar, video kontent, virtual sayohatlar va boshqa zamonaviy marketing vositalari orqali targ'ib qilish turistlar oqimini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish. An'anaviy madaniy turizm bilan bir qatorda ekologik, tog', gastronomik, hunarmandchilik, agroturizm va ziyorat turizmi yo'nalishlarini rivojlantirish hududda turistlarning qolish muddatini uzaytirish imkonini beradi.

Kadrlar salohiyatini oshirish. Gidlar, turizm menejerlari, marketing mutaxassislari va mehmonxona servisi xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish lozim.

Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishga xususiy investitsiyalarni jalb qilish, investorlarga qulay sharoitlar yaratish va turizm loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Aqlli turizm va raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish. Elektron xizmatlar, raqamli monitoring, onlayn bronlash, GIS texnologiyalari va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlaridan foydalanish turizmni boshqarish samaradorligini oshiradi.

Xulosa.

O'tkazilgan tahlil Farg'ona viloyatining mintaqaviy turizm salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatdi. Viloyatning tabiiy, tarixiy-madaniy, rekreatsion va hunarmandchilik resurslari turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirish uchun yetarli asos yaratadi.

2023-2025-yillardagi statistik ma'lumotlar viloyat iqtisodiyotida ijobiy o'sish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, YaHM 2023-yildagi 81 573,3 mlrd so'mdan 2025-yilda 111 305,3 mlrd so'mga, xizmatlar umumiy hajmi esa 45 227,8 mlrd so'mdan 71 765,9 mlrd so'mga yetgan. Yashash va ovqatlanish xizmatlarining o'sishi ham turizm infratuzilmasining rivojlanish tendensiyasini ko'rsatadi.

Shuningdek, 2022-2024-yillarda turistik firma va tashkilotlar faoliyati ham o'sish tendensiyasini namoyon etgan. 2024-yilda 19 ta turistik firma va tashkilot tomonidan 11,9 ming kishiga xizmat ko'rsatilgani va 12 mingta sayyohlik yo'llanmasi sotilgani hududda turizm xizmatlariga talab ortib borayotganidan dalolat beradi.

Biroq mavjud ijobiy dinamikaga qaramasdan, transport va turizm infratuzilmasining ayrim yo'nalishlardagi zaifligi, malakali kadrlar yetishmovchiligi, marketing va brendingning sustligi, raqamlashtirish darajasining yetarli emasligi hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining takomillashmaganligi hudud turizm salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

Shu sababli Farg'ona viloyatida turizm salohiyatidan samarali foydalanishning asosiy sharti sifatida infratuzilmani modernizatsiya qilish, hududiy turistik brendni shakllantirish, raqamli marketingni rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish, malakali kadrlar tayyorlash va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirishni ko'rsatish mumkin. Mazkur yo'nalishlarning kompleks ravishda amalga oshirilishi viloyatning turistik raqobatbardoshligini oshirish, turistlar oqimini ko'paytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududning investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi. Farg'ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Kirish yo'li: <https://farstat.uz/uz//>

2. Farg'ona viloyati Turizm departamenti. Turizm infratuzilmasi bo'yicha hisobot. 2026-yil 9-avgust ko'rilgan, manzil: <https://en.ferganatourism.uz/>
3. Astanakulov, Komil & Ahmedov, Alim & Kovalev, Dmitriy & Mamasalieva, Mukaddas. (2025). An integrated approach to sustainable tourism development in the mountain regions of Uzbekistan. Sustainable Development of Mountain Territories. 17. 414-426. 10.21177/1998-4502-2025-17-1-414-426.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2018). PQ-3155-son qaror - Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va investorlarni jalb qilish choralari to'g'risida.
5. Kuymuratova, M. A. (2022). Strategic directions of tourism development in the Fergana Valley and prospects for diversification of tourist services. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 13(S06), 3795–3803. DOI: 10.47750/pnr.2022.13.S06.505.
6. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Statistik hisobotlar va investorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.
7. Farg'ona viloyati Turizm departamenti. Turizm infratuzilmasi bo'yicha hisobot.
8. Rashidovna, A. F. (2022). PR (Public Relations) Technologies in the Development of Domestic Tourism in the Example of Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(1), 1–4. <https://doi.org/10.51699/cajitm.v3i1.189>.
9. Mamayusupova Dilovarkhon (2021). Legal framework for development of touristic potential based on public-private partnership. Бюллетень науки и практики, 7 (5), 356-361.